"MABDAI NUR" ASARINING ILMIY-ADABIY VA MANBAVIY ASOSLARI

Ravshanov Ozodbek Xojimurod o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24436072

Annotatsiya. Mazkur tezisda "Mabdai nur" asarining ilmiy-adabiy va manbaviy asoslari tahlil qilinadi. Asarning Qur'oni karim, hadislar, tasavvufiy manbalar hamda Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari bilan munosabati yoritiladi. Xususan, Qur'on oyatlari va hadislarda uchraydigan voqea-hodisalarning "Mabdai nur"dagi badiiy talqini, payg'ambarlar obrazining tasavvufiy mohiyati hamda ikki masnaviy o'rtasidagi mazmuniy mushtarakliklar misollar asosida tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: "Mabdai nur", "Masnaviyi ma'naviy", Boborahim Mashrab, tasavvuf, Qur'oni karim, hadis, manbaviy asos, payg'ambarlar obrazi, adabiy ta'sir, badiiy talqin.

Asosiy qism

"Mabdai nur" asari Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari bilan mazmuniy va g'oyaviy jihatdan chambarchas bog'liq bo'lib, unda Rumiyning tasavvufiy qarashlari va badiiy an'analarining ta'siri seziladi. Biroq asarni faqat "Masnaviy"ning sharhi sifatida baholash uning individual badiiy xususiyatlarini cheklab qo'yadi. Chunki "Mabdai nur"da muallif mavjud adabiy va diniy manbalardan ijodiy foydalanib, o'ziga xos badiiy ifoda hamda tasavvufiy talqinlarni yaratgan. Shu bois, asar bir tomondan sharh xususiyatlariga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan mustaqil badiiy asar sifatida ham namoyon bo'ladi.

Asar to'lig'icha tasavvufiy ruhda yozilgan bo'lib, uning manbaviy asoslarini, avvalo, Qur'oni karim oyatlari, hadislar, tasavvufiy risolalar, manoqiblar, anbiyo va avliyolar haqidagi hikoyat hamda rivoyatlar tashkil etadi. Shuningdek, unda Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asari va shu kabi tasavvufiy manbalarda uchraydigan hikoyatlar, xalq orasida keng tarqalgan diniy-tasavvufiy rivoyatlarning badiiy talqinlarini ham kuzatish mumkin.

Asarning Qur'oni karim bilan bog'liq manbaviy asoslarini Nuh alayhissalom va to'fon voqeasi misolida ko'rish mumkin:

Anbiyo komili sohib futuh,
Amr etardi qavmiga solor Nuh.
Keladur to'fonni rangi rang-barang,
Vaqti sho'rish bo'lmasdan kishti tuzang[1].

Ushbu baytlarda Nuh alayhissalomning o'z qavmini haq yo'lga da'vat qilishi va to'fon voqeasiga tayyorgarlik jarayoni tasvirlangan. Mazkur voqeaning asosiy manbasi Qur'oni karimning "Hud" surasi 40–49-oyatlaridir. Shoir Qur'onda bayon etilgan voqeani she'riy shaklda qayta talqin qilib, unga tasavvufiy mazmun yuklaydi. Bu holat asarda diniy manbalardan badiiy ijod uchun asos sifatida foydalanilganini ko'rsatadi.

[1] Бобораҳим Машраб. Мабдаи нур. Нашрга тайёрловчи: Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти, 1994. – В. 314.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Hadislar ham "Mabdai nur"ning muhim manbaviy qatlamlaridan birini tashkil etadi. Xususan, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning Me'roj voqeasi va ko'ksining yorilishi bilan bog'liq rivoyatlar Imom Muslimning "Sahihi Muslim" asaridagi "Al-imon" bobida Anas ibn Molik (r.a.) rivoyati orqali keltirilgan. Mazkur voqelik "Mabdai nur"ning birinchi daftarida quyidagicha ifodalangan:

Chiqdi me'roj uzra nogoh Mustafo,
Avval-u oxirni bildirdi Xudo. (36-bet)

Baytda Me'roj voqeasi orqali Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning ilohiy maqomi va Alloh tomonidan yuksak martabaga ko'tarilishi tasvirlangan. "Mustafo" so'zi "tanlangan" ma'nosini anglatib, Payg'ambarning Alloh tomonidan saralangan zot ekaniga ishora qiladi. "Avval-u oxir" birikmasi esa ilohiy haqiqatning kengligi, borliqning boshlanishi va yakuni bilan bog'liq tasavvufiy mazmunni ifodalaydi.

Me'roj voqeasi bilan bog'liq tasavvufiy mazmun quyidagi baytlarda yanada chuqurlashadi:

O'ttiz uch ming so'z shariat aydi Haq,
O'ttiz uch ming so'z tariqat aydi Haq.
O'ttiz uch ming so'z haqiqatdin bayon,
Siynayi Ahmadga Haq qildi nihon. (36-bet)

Mazkur baytlarda tasavvuf ta'limotining asosiy bosqichlari – shariat, tariqat va haqiqat tushunchalari o'zaro uzviylikda talqin etilgan. "O'ttiz uch ming so'z" iborasi ramziy ifoda bo'lib, mazkur ta'limotlarning kengligi va chuqurligini anglatadi. Shariat diniy amallarning zohiriy jihatini, tariqat ruhiy kamolot va qalb poklanishi yo'lini, haqiqat esa ilohiy mohiyatni anglashning oliy bosqichini ifodalaydi. Baytda ushbu ilohiy sirlarning Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) qalbiga joylanganligi ta'kidlanadi.

Mazkur fikr quyidagi baytlarda davom ettiriladi:

Dedi Haq: ey rahmatan lil olamin,
San haqiqat xalqg'a ifsho qilmagin.
Sirri jondin so'zlama bu jahlg'a,
Bas, tariqatdin so'z aytgil ahlg'a. (36-bet)

Ushbu misralarda ilohiy haqiqatni anglash va uni bayon etish masalasi tasavvufiy nuqtayi nazardan yoritilgan. "Rahmatan lil olamin" iborasi Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning olamlarga rahmat qilib yuborilgan zot ekanini anglatadi. Haqiqat sirlarini har kim ham birdek anglay olmasligi, shu bois ularni anglashga qodir bo'lgan "ahl"ga yetkazish lozimligi ta'kidlanadi. Demak, shoir tasavvufdagi zohir va botin, avom va xos tushunchalarini badiiy ifoda vositasida yoritgan.

"Mabdai nur"ning yana bir muhim adabiy manbasi Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asaridir. Ikki asar o'rtasidagi mushtaraklik, ayniqsa, payg'ambarlar obrazining talqinida yaqqol ko'zga tashlanadi. Har ikki masnaviyda Odam, Shis, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Dovud, Sulaymon, Ya'qub, Yusuf, Muso, Iso va Muhammad (alayhimussalom) obrazlari tasavvufiy mazmunni ifodalashda muhim o'rin tutadi.

Jumladan, "Masnaviyi ma'naviy"da Odam alayhissalomga ma'rifat nuri berilishi quyidagicha ifodalanadi:

Urdi so'ng jonlarga chaqmoq mehridin,
Topdi Odam ma'rifat ul nurdin. (2/913)[2]

[2] Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. I – VI жилд.Таржимон: Жамол Камол. – Тошкент, 2006.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mazkur baytda Odam alayhissalomning ilohiy ma'rifatga erishishi nur timsoli orqali ifodalangan. Shuningdek, Shis alayhissalomning Odam alayhissalomdan keyingi payg'ambar sifatidagi mavqeyi ham "Masnaviy"da aks etadi:

So'ngra odam ilkidin Shis oldi nur,
Nur olib, unga xalifa bo'ldi ul. (2/914)

Nuh alayhissalom obrazi esa to'fon voqeasi bilan bog'liq holda tasvirlanadi:

Nuh o'shal gavhardin oldi shu'lalar,
Bahr aro yog'dirdi inju jolalar. (2/915)

"Mabdai nur"da ham Nuh alayhissalom obrazi insoniyatning davomiyligi va ilohiy fayz ramzi sifatida namoyon bo'ladi:

Avval odam erdimu keldim chu Nuh,
Mendin izlanglar mudom fayzi futuh. (250-bet)

Bu baytda insoniyatning Odam alayhissalomdan boshlanishi, to'fondan keyingi avlodlarning Nuh alayhissalom bilan bog'liqligi ifodalangan.

Ibrohim alayhissalom obrazi har ikki asarda ham Allohga sadoqat, iymon va tavakkul timsoli sifatida talqin etiladi. "Masnaviyi ma'naviy"da uning olovga tashlanishi bilan bog'liq voqea quyidagicha ifodalangan:

Joni Ibrohimda yashnab shu'ladek,
G'oz yurib kirdi olovga behadik. (2/916)

"Mabdai nur"da esa Ibrohim alayhissalomning nasab va Ka'batulloh bilan bog'liq jihatlari aks etadi:

Chun nasab bobida man Ibrohimam,
Ka'bayi nuri baqodur doimam. (251-bet)

Ismoil alayhissalom obrazi orqali esa Alloh yo'lida fidoyilik va itoatkorlik g'oyasi ifodalanadi. "Masnaviyi ma'naviy"da:

Mavji nur ko'rdi chu Ismoil uni,
Kirdi ul, xanjarga tutdi bo'ynini. (2/917)

Ushbu baytda Ibrohim alayhissalomning o'g'lini qurbonlik qilishga jazm etishi va Ismoil alayhissalomning ilohiy amrga roziligi bilan bog'liq voqea yoritilgan. Bu rivoyat tasavvufiy talqinda nafsni qurbon qilish, iymon va sadoqatning yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

"Masnaviyi ma'naviy"da Dovud alayhissalomning temirni yumshatish mo'jizasi:

Joni Dovud ham u nurdin yashnadi,
Ilkida mumdek, temirlar yumshadi. (2/918)

Sulaymon alayhissalomning dev va parilar ustidan hukmronligi:

Chun Sulaymon bo'ldi vasli hamdami,
Amrida bo'ldi tamom dev-u pari. (2/919)

Ya'qub va Yusuf alayhimassalom obrazlari orqali esa ayriliq, sabr, muhabbat va visol g'oyalari yoritiladi:

Kechdi Ya'qub ul qozonning ko'yidin,
Ko'zi ravshan tortdi o'g'li bo'yidin. (2/920)
Yusufi mohro' ko'rib ul oftob,
Bo'ldi bedor, etgali ta'biri xob. (2/921)

Muso alayhissalomning asosi bilan bog'liq mo'jiza ham "Masnaviy"da alohida badiiy ifoda topgan:

Ul aso Muso qo'lidin ichdi suv,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Yamlamay Fir'avn mulkin yutdi ul. (2/922)
Iso alayhissalomning osmonlarga ko'tarilishi:
Norvon qo'ydi Iso nur mavjiga,
Chiqdi so'ng to'rtinchi osmon avjiga. (2/923)
Muhammad (s.a.v.)ning oy yorilishi mo'jizasi esa quyidagicha tasvirlangan:
Chun Muhammad topdi ul mulki naim,
Oyni u ikkiga bo'ldi teng yarim. (2/924)

Yuqoridagi misollar "Masnaviyi ma'naviy"da payg'ambarlar hayoti bilan bog'liq voqealar tasavvufiy mazmunda talqin etilganini ko'rsatadi. "Mabdai nur"da ham mazkur obraz va voqealarning uchrashi ikki asar o'rtasidagi adabiy-g'oyaviy aloqalarni aniqlash uchun muhim asos bo'la oladi. Bunda faqat mavzu o'xshashligini emas, balki voqealarning tanlanishi, ularning badiiy ifodasi, obrazlarning vazifasi va tasavvufiy mazmunini ham qiyosiy o'rganish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, "Mabdai nur"ning ilmiy-adabiy va manbaviy asoslari ko'p qatlamli xususiyatga ega. Asarning asosiy manbalarini Qur'oni karim, hadislar, tasavvufiy risolalar, manoqiblar va xalq orasida tarqalgan diniy-tasavvufiy rivoyatlar tashkil etadi. Shu bilan birga, Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari "Mabdai nur"ning muhim adabiy manbalaridan biri hisoblanadi. Har ikki asarda payg'ambarlar obrazining tasavvufiy talqini, ilohiy nur, ma'rifat, iymon, sabr va fidoyilik g'oyalarining mushtarakligi kuzatiladi.

Biroq "Mabdai nur"ni faqat "Masnaviy"ning sharhi sifatida baholash to'g'ri emas. Unda mavjud manbalar ijodiy qayta ishlanib, o'ziga xos badiiy talqin va tasavvufiy qarashlar bilan boyitilgan. Shu sababli asarni sharh xususiyatlariga ega bo'lgan mustaqil badiiy yodgorlik sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – T.: O'qituvchi, 1967. (Mashrabga alohida bob ajratilgan).
2. Бобораҳим Машраб. Мабдаи нур. Нашрга тайёрловчи: Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти, 1994. – В. 314.
3. Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. I – VI жилд.Таржимон: Жамол Камол. – Тошкент, 2006.
4. Imom Buxoriy. Al jomi as-sahih \\ Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati. 1991.
5. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi \\ Tarjima va izohlar muallifi: Mansur A. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2007.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.